AGRAR SEKTORDA FERMER XO‘JALIKLARINING O‘RNI VA ULARNI SAMARALI TASHKIL ETISH YO‘NALISHLARI

Eshkulova Gulmira Shokirovna
Navoiy davlat universiteti Tarix fakulteti Tarix kafedrasi o'qituvchisi
eshkulovagulmira531@gmail.com
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.23168741

Annotatsiya. Ushbu tezisda O‘zbekiston Respublikasida fermer va ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarining huquqiy va tashkiliy-iqtisodiy asoslari, ularning agrar sohadagi o‘rni hamda rivojlanish omillari yoritilgan. Shuningdek, fermer xo‘jaliklarini tashkil etish shartlari, yer uchastkalarining eng kam o‘lchamlari mezonlari va fermerlarning hosildorlik bo‘yicha majburiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Fermer xo‘jaligi, ko‘p tarmoqli fermerlik, agrar islohotlar, yer ijari, normativ hosildorlik, chorvachilik, agroservis, bozor infratuzilmasi.

Аннотация. В данном тезисе освещены правовые и организационно-экономические основы фермерских и многопрофильных фермерских хозяйств в Республике Узбекистан, их роль в аграрном секторе, а также факторы их развития. Кроме того, проанализированы условия организации фермерских хозяйств, критерии минимальных размеров земельных участков и обязательства фермеров по урожайности.

Ключевые слова: фермерское хозяйство, многоотраслевое фермерство, аграрные реформы, аренда земли, нормативная урожайность, животноводство, агросервис, рыночная инфраструктура.

Abstract. This abstract highlights the legal and organizational-economic foundations of individual and multifunctional farms in the Republic of Uzbekistan, their role in the agricultural sector, and the key factors driving their development. Furthermore, it analyzes the conditions for establishing farms, criteria for minimum land plot sizes, and farmers' obligations regarding crop yield.

Keywords: farm enterprise, multi-sector farming, agrarian reforms, land lease, normative yield, livestock farming, agricultural services, market infrastructure.

Kirish. Fermer xo‘jaligi ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyekt hisoblanadi. Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaligi qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish bilan birga qishloq xo‘jaligi mahsulotini qayta ishlash, saqlash va realizatsiya qilish, sanoat ishlab chiqarishi, ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullanuvchi fermer xo‘jaligidir. Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklari reyestrini yuritish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.[1] Ushbu huquqiy asoslar fermer xo‘jaliklarini agrar sektorning tartibga solingan va samarali bo‘g‘ini sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Ayni paytda agrar islohotlar chuqurlashayotgan sharoitda fermer xo‘jaliklarining agrar sektordagi o‘rnini aniqlash va ularni samarali tashkil etish yo‘nalishlarini ilmiy

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

asoslash dolzarb masalaga aylanmoqda. Chunki fermer xo‘jaliklari oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, qishloq hududlarida aholi bandligi va daromadini oshirish, qishloq xo‘jaligi mahsuloti ishlab chiqarishni ko‘paytirishda muhim o‘rin tutadi.

Shu sababli fermer xo‘jaliklarini tashkil etish va rivojlantirish masalalari agrar iqtisodiyot sohasi olimlarining doimiy e’tiborida bo‘lib kelmoqda. Jumladan, T.X.Farmonovning fermer xo'jaliklarini rivojiga bag'ishlangan monografiyasida respublika qishloq xo'jaligida istiqbolli xo'jalik yuritish shakli sifatida faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklarini tashkil etish va rivojlantirish masalalari yoritilgan.

Iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishi sifatida fermer xo'jaliklarini tashkil etish va rivojlantirishning ob'ektiv zarurligini belgilovchi omillar, uning nazariy asoslari va asosiy tamoyillari, xo'jaliklarni barqaror iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, qishloq xo'jaligida tovar mahsuloti ishlab chiqaruvchi yirik xo'jalik sub'ekti sifatidagi o'rni iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida tahlil qilinib, qishloq xo'jalik yalpi mahsulotida ularning ulushini ko'paytirish dinamikasi o'rganilgan.

Monografiyada past rentabelli va zarar ko'rib faoliyat ko'rsatayotgan shirkat xo'jaliklari o'rnida fermer xo'jaliklarini tashkil etishning iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy asoslari yaratilgani, ularning yanada samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida bozor infratuzilmasi rivojlantirilgani, moddiy-texnika salohiyati mustahkamlanganligi va agroservis xizmati ko'rsatish yaxshilanganligi masalasi ko'rsatilgan. Qishloq aholisi bandligi va ijtimoiy muhofaza muammolarining hal qilinishida fermer xo'jaliklarining tutgan o'rni ochib berilgan.[2]

Iqtisodchi olim R.X.Xusanovning ko'p yillik ilmiy kuzatishlari jarayonida yaratilgan to'plamida mustaqillik yillari O'zbekiston qishloq xo'jaligida erishilgan muvaffaqiyatlar, turli xo'jalik yuritish shakllari, jumladan, fermer xo'jaliklarining rivojlanishi, qishloqlarda iqtisodiy islohotlarning borishi, iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirishning qishloq xo'jaligining rivojlanishiga ijobiy ta'siri masalalari keng yoritilgan. Agrar sohadagi xususan, fermer xo'jaliklaridagi turli tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar, shu jumladan, iqtisodiy faoliyatni samarali tashkil etish masalalari mamlakat olimlari tomonidan tadqiq etilgan. Iqtisodchi — izlanuvchilar tadqiqotlarida fermer xo'jaliklarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari, nazariy jihatlari faoliyat samaradorligini oshirish masalalarini, yer-suv, moddiy-texnik vositalari va mehnat resurslari, servis xizmati ko'rsatish shaxobchalari bilan ta'minlanganligi tahlil qilingan. Fermer xo'jaliklarining afzallik jihatlari, ularni tashkil etishning ob'ektiv zarurligi asoslab berilgan. [3]

Qishloq aholisi bandligi va ijtimoiy muhofaza muammolarining hal qilinishida fermer xo‘jaliklarining tutgan o‘rni ochib berilgan. Fermer xo‘jaligining faoliyati esa uning boshlig‘i, ya’ni xo‘jalikning muassisi bo‘lgan fermerning tashabbusi va mas’uliyatiga tayanadi. Qonunchilikka ko‘ra, o‘n sakkiz yoshga to‘lgan, qishloq xo‘jaligida tegishli malaka yoki ish tajribasiga ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi fermer bo‘lishi mumkin.

Boshqa yuridik va jismoniy shaxslar bilan munosabatlarda fermer xo‘jaligi nomidan ana shu xo‘jalik boshlig‘i ish ko‘radi. Fermer xo‘jaligi qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarda va zaxira yerlarda tashkil etiladi. Fermer xo‘jaligiga beriladigan yer uchastkalarining eng kam o‘lchami O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi bilan belgilanadi. Yer uchastkalari berilganda fermer xo‘jaligi o‘z zimmasiga qishloq xo‘jalik ekinlarining hosildorligi (uch yil uchun o‘rtacha yillik hosil hisobida) qonunchilikda belgilangan normativ hosildorlikdan kam bo‘lmasligini ta’minlash majburiyatini olgan. Bu majburiyat yer uchastkasini ijaraga olish shartnomasida mustahkamlab qo‘yilgan. [1]

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Fermer xo‘jaligi tanlov asosida, aksariyat hollarda mehnat resurslari ortiqchaligi sezilmayotgan yerlarda va hududlarda tashkil etiladi. Chorvachilik mahsuloti yetishtirishga ihtisoslashtirilgan fermer xo‘jaligi kamida 30 shartli bosh chorva moli bo‘lgan taqdirda tashkil etiladi. Fermer xo‘jaligiga ijaraga beriladigan yer uchastkalarining eng kam o‘lchami bir shartli bosh chorva molga hisoblaganda Andijon, Namangan, Samarqand, Toshkent, Farg‘ona va Xorazm viloyatlaridagi sug‘oriladigan yerlarda kamida 0,3 gektar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va boshqa viloyatlardagi sug‘oriladigan yerlarda kamida 0,45 gektar, sug‘orilmaydigan (lalmikor) yerlarda esa kamida 2 gektarni tashkil etadi.

Dehqonchilik mahsuloti yetishtirishga ihtisoslashtirilgan fermer xo‘jaliklariga ijaraga beriladigan yer uchastkalarining eng kam o‘lchami paxtachilik va g‘allachilik uchun kamida 10 gektar, bog‘dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik va boshqa ekinlarni yetishtirish uchun kamida 1 gektarni tashkil etadi. Yer uchastkalari berilganda fermer xo‘jaligi o‘z zimmasiga qishloq xo‘jalik ekinlarining hosildorligi (uch yil uchun o‘rtacha yillik hosil hisobida) yerning kadastr bahosidan kam bo‘lmasligini ta’minlash majburiyatini oladi. Bu majburiyat yer uchastkasini ijaraga olish shartnomasida mustahkamlab qo‘yilgan. [4]

Xulosa. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida fermerlik instituti shunchaki mahsulot yetishtiruvchi subyekt emas, balki qishloq hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning tayanch ustunidir. Shirkat xo‘jaliklaridan bosqichma-bosqich fermerlikka va keyinchalik ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklariga o‘tilishi agrar sohada ishlab chiqarish samaradorligini oshirdi, qayta ishlash va xizmat ko‘rsatish zanjirini shakllantirdi. Yer resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash uchun qonunchilikda yer o‘lchamlari va normativ hosildorlik talablarining qat'iy belgilanishi hamda ularning ijara shartnomalari orqali mustahkamlanishi fermerlarning mas'uliyatini oshiradi. Iqtisodchi olimlarning ta'kidlashicha, fermer xo‘jaliklarining barqaror faoliyati agroservis va bozor infratuzilmasini takomillashtirish hamda qishloqda yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risidagi O‘RQ-683-sonli Qonuni // https://lex.uz/docs/-5388561
2. Farmonov T.X. Fermer xo'jaliklarini rivojlantirish istiqbollari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004. – 144 b.
3. Xusanov R.X. Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlar va agrar iqtisodiyot. - Toshkent: Yangi asr avlodi,2004.B.213
4. O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-apreldagi Fermer xo’jaligi to’g’risidagi 602-I-sonli Qonuni.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.